Raqamli transformatsiya sharoitida tijorat banklarining strategik boshqaruv tizimini takomillashtirish yo'llari.....	1470
<b>Umurov Jasurbek Jamil o'g'li</b>	
Digital neighbourhood contexts in youth employment and competency frameworks .....	1474
<b>Gulsara Ostonakulova</b>	
Роль организации антимонопольной политики в национальной экономике в обеспечении экономической безопасности и конкурентоспособности.....	1482
<b>Глазова Марина Викторовна</b>	
Rivojlangan sug'urta bozorlarida investisiya faoliyati tahlili.....	1487
<b>Suyunov Isomiddin Tilovkobilovich</b>	
O'zbekiston respublikasida qurilish kompleksining hozirgi holati va asosiy rivojlanish tendensiyalari.....	1491
<b>Muxibova Guli Yarkinovna</b>	
Aholining turmush farovonligini oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli .....	1496
<b>Ostanova Nargiza Baratovna</b>	



Tadbirkorlik faoliyatini boshqarishda rahbarlik uslubi: demokratik rahbarlar.....	1508
<b>Amonov Mehridin Oromiddinovich</b>	
Korxonlarni rivojlantirishda yashil iqtisodiyot mexanizmlarini joriy etish.....	1513
<b>Yusupov Bekzod Ulugbekovich</b>	
O'zbekistonda sog'lomlashtirish turizmi infratuzilmasini rivojlantirishni ko'p omilli ekonometrik modellashtirish asosida prognozlash.....	1517
<b>Norchayev Asatullo Norbo'tayevich</b>	
"Ijtimoiy himoya" kategoriyasiga qaratilgan nazariy qarashlar evolyusiyasi.....	1526
<b>Bobonov N.H</b>	
Majburiyatlar hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirishning nazariy asoslari.....	1532
<b>Ikromova Odinaxon</b>	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish sifatini oshirishda raqamli xizmatlarning obyektiv zarurati.....	1537
<b>Norov Murodjon Mahmudovich</b>	
Oliy ta'lim xizmatlari mohiyati va rivojlanish nazariyasi.....	1541
<b>Iskandarov Shahboz Shavkat o'g'li</b>	
Davlat-xususiy sheriklikka oid ilmiy yondashuv va qarashlarning rivojlanish tendensiyalari.....	1545
<b>O'ktamova Nargiza Narzulla qizi</b>	
Theoretical foundations of time series analysis in green economy.....	1552
<b>Muradov Rustamjon Sobitkhonovich</b>	
Korxonalar faoliyati samaradorligini baholashning kompleks yondashuvi: nazariya va amaliyot.....	1563
<b>Xalilov Bekzod Axmatovich</b>	
Aholi real daromadlarini shakllantirishda inson kapitalini rivojlantirishning roli.....	1568
<b>Iskandarova Dilafuz Ikrom qizi</b>	
Yashil iqtisodiyotda transportning tutgan o'рни.....	1573
<b>Yuldasheva Saodat Arslanovna, Otanazarova Charos Baxtiyor qizi</b>	
Xalqaro standartlar asosida hisob siyosati metodologiyasini takomillashtirish.....	1577
<b>Qurbanboev Jurabek Eruvboevich</b>	
Sanoat tarmoqlarini barqaror rivojlantirishda "yashil" iqtisodiyotdan samarali foydalanish istiqbollari.....	1585
<b>Yuldasheva Saida Nematovna</b>	
Mintaqaviy mehnat bozorini tartibga solishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari.....	1593
<b>Azadova Gulnoza Sardorbekovna</b>	
O'zbekistonda yashil sug'urta mahsulotlarini rivojlantirishda xorij tajribalari.....	1600
<b>Yusufov Asfandiyor Eldor o'g'li</b>	
Понятие и типы финансовых шоков: макроэкономический контекст и микроуровневые последствия.....	1606
<b>Захарова Ирина Борисовна</b>	
Современное состояние оздоровительного туризма в Узбекистане.....	1611
<b>Сирлибеков Хабибулло Шакарбоевич</b>	
Impact of industrial development on macroeconomic indicators.....	1621
<b>Olchinboyev Otabek Abdusamad ugli</b>	
Анализ предпочтений на рынке электронной торговли в Узбекистане.....	1625
<b>Уразов Комил Бахрамович, Хушмуродова Мадина</b>	
Методы оценки деятельности акционерных обществ с учетом инвестиционных рисков.....	1639
<b>Айтмуратова Улбике Жалгасовна</b>	
Xalqaro moliyaviy markazlar va ularning jahon iqtisodiyotidagi roli.....	1645
<b>Sharipova Shaxinabonu Orif qizi</b>	
Development of modern tourism industry in Uzbekistan through smart technologies and digital transformation.....	1649
<b>Master's student at Silk Road University</b>	
Iqtisodiyotda qiymat nazariyasi asosida qishloq xo'jaligida qo'shilgan qiymatni shakllanishi.....	1656
<b>Azizov Shohsuvor Yuldashevich</b>	
Xo'jalik yurituvchi subyektlar, ularda hisobdorlik va boshqaruvda axborotlarning tahlililigini oshirish masalalari.....	1659
<b>Yusupov Azizbek Baxtiyor o'g'li</b>	



“Yashil” iqtisodiyotga o‘tishda xalqaro hamkorlik: O‘zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyatidagi yangi tendensiyalar .....	1665
<b>Xashimov Pazliddin Zukurovich, Sobirxo‘jaev Xadyatillo Billoxon o‘g‘li</b>	
Uy-joy fondini boshqarishning mazmun-mohiyati va o‘ziga xos xususiyatlari .....	1671
<b>Inoyatova Durdona Shoxaydarovna</b>	
O‘zbekiston va markaziy osiyo davlatlari budget siyosatining qiyosiy tahlili.....	1677
<b>Sharoxmatov Abduraxim Abdulamitovich</b>	
Kambag‘allikni qisqartirish – mamlakatda barqaror ijtimoiy-iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash omili sifatida .....	1683
<b>Tashbaeva Saodatxon Alisherovna</b>	
Финансовые технологии: сущность и задачи.....	1687
<b>Амонова Хафиза</b>	
O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holati va investitsiya jarayonlarining o‘ziga xos xususiyatlari.....	1690
<b>O‘rinov Akmaljon Axmadjonovich</b>	
Budget tashkilotlarida ichki audit tizimini shakllantirish: xorijiy tajriba.....	1695
<b>Po‘latov Tirkash Sotiboldiyevich</b>	
“Ichki iste‘mol uchun qayta ishlash” bojxona protseduralarini O‘zbekiston sharoitida qo‘llashning ahamiyati.....	1699
<b>Buranov Husniddin Husenovich, Allabergenov Ozodjon Maksudbayevich</b>	
To‘qimachilik sanoatini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish.....	1703
<b>Muxiddinova Kamola Sagdullayevna</b>	
O‘zbekiston respublikasida qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining rivojlanishini iqtisodiy tahlili .....	1708
<b>Aysachev Abdulfotix Abdulfaizovich</b>	
Kichik biznes korxonalarini uchun eksport salohiyatini oshirish yo‘llari va strategiyalar .....	1714
<b>Mo‘minova Kanizaxon</b>	
Buxoro viloyatida agroklaster tizimi rivojlantirish yo‘nalishlari va iqtisodiy samaradorligi .....	1718
<b>Ro‘ziyev Sobirjon Samatovich, Boltayeva Shaxnoz Bebudovna</b>	
Temir yo‘l tizimini modernizatsiya qilishda imitatsion model asosida tahliliy yondashuv.....	1724
<b>Mamasidikov Muxsinjon Musajonovich</b>	
Климатическая политика и «зеленая» трансформация: Торговля углеродными единицами (Углеродная торговля) .....	1730
<b>Исламов Шохзод Шухрат ўғли</b>	
O‘zbekistonda kichik va o‘rta biznes sohasining rivojlanish tendensiyalarini ekonometrik modellarini tuzish asosida baholash.....	1738
<b>Arzikulov Otabek Ali o‘g‘li, Xudoyorova Ruhshona Toshpo‘lot qizi</b>	
Ikkilamchi bozorda noturar joy ko‘chmas mulk qiymatini baholashning huquqiy mexanizmini takomillashtirish .....	1743
<b>Fayziyeva Gulnoza Abdurahmonovna</b>	
O‘zbekiston da yashil iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning strategik yo‘nalishlari .....	1749
<b>Otaxonova Dinora Musaboy qizi</b>	
Tibbiy xizmatlarning rivojlanish evolutsiyasi va samaradorlik hamda xarajatlari tushunchalarining mohiyati.....	1754
<b>Axmedov Zafarjon A‘zamovich, Karabayev Sanjar Abdusamatovich, Uraqov Shokir Ulashovich</b>	
Kichik biznes korxonalarida sanoat ishlab chiqarish samaradorligiga ta‘sir etuvchi omillar .....	1762
<b>Axmedova Nilufar Shuxratovna, Amirov Zubaydulla Toir o‘g‘li</b>	
Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida yoshlarning ish bilan bandlik darajasini oshirish yo‘llari .....	1768
<b>Sharipov Sherzod Shavkatovich</b>	
Paxta-to‘qimachilik klasterlarida buxgalteriya hisobotlarini yuritishning muhim jihatlari .....	1772
<b>Madartov Bahrom Quvondiqovich</b>	
Aksiyadorlik jamiyatlarida o‘z kapitali hisobini xalqaro moliyaviy hisobot standartlari asosida yuritishni takomillashtirish.....	1776
<b>Axmedov Latayibxon Mamitxonovich</b>	
Reklama xizmatlari bozorida raqobatbardoshlikni oshirish yo‘llari.....	1780
<b>Xamrakulov Azamat Baxritdinovich</b>	



Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida xizmatlar sohasini rivojlantirish tendensiyalari.....	1785
<b>Seytimbetov Kabul Serimbetovich</b>	
O'zbekiston va islom taraqqiyot banki: hamkorlik va rivojlanish istiqbollari.....	1789
<b>Dilovarxo'jayeva Dilnozaxon Shavkatxo'ja qizi</b>	
Xodimlarni rag'batlantirish tizimida mehnatga haq to'lash .....	1793
<b>Xamdamov Nuriddin Abdimalikovich</b>	
Mahalliy budjet daromadlarini shakllantirishda soliqlarning tutgan o'rni .....	1797
<b>Kimsanboyeva Maftuna Baxodirovna</b>	
Dunyo mamlakatlarida xorijiy talabalar oqimi tahlili va ta'lim eksportining demografik salohiyati .....	1802
<b>Abdullayev Javoxir Jaxongirovich</b>	
Davlat qarzini boshqarish amaliyotini takomillashtirish .....	1809
<b>Djurayev Paxlaxonjon Usarovich</b>	
Mintaqada chakana savdoni rivojlantirish istiqbollari.....	1815
<b>Ismoilov Shohjahon O'tkir o'g'li, Abdullayev Ilyos Sultanovich</b>	
Yuk tashish sohasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish .....	1819
<b>Omarov Mamanbiy Allabergenovich</b>	
Mathematical statistics in biology and medicine .....	1826
<b>Vokhidov Alikul, Orazbaeva Ayjamal, Tog'amurotova Jasmira, Turotova Dildora</b>	
"Yashil" energetika salohiyatini ro'yobga chiqarishda xatarlar va muammolar: O'zbekiston sharoitida tahlil va yechimlar .....	1833
<b>Nasretdinov Nodir Tulqinovich</b>	
Aglomeratsiyalar ekologik barqarorligi: koreya respublikasi tajribasi va o'zbekistonda uni qo'llash imkoniyatlari.....	1837
<b>Shohruh Shuhrat o'g'li Mardonov</b>	
Sanoat sohasida energiya samaradorligini oshirishning iqtisodiy va ekologik afzalliklari.....	1843
<b>Iminov Farxodjon Tohirjonovich</b>	
Современные принципы и дальнейшее совершенствование налогового администрирования в узбекистане.....	1848
<b>Буранова Лола Вахобовна, Рахимова Шахло Ражапбоевна</b>	
Роль малого и частного бизнеса в инновационном развитии экономики узбекистана: сравнительно-аналитический подход .....	1858
<b>Мадраимова Согдиана Равильевна</b>	
Sayyohlarning shikoyatlarini ko'rib chiqish va ularning huquqiy huquqlarini tiklash mexanizmlari .....	1864
<b>Sayfiddinov Sharofiddinxo'ja Najmiddin o'g'li</b>	
Sanoat korxonalarida inqozga qarshi boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish .....	1869
<b>Muxammadov Umarjon Muxammad o'g'li</b>	
Xalqaro kompaniyalarda Big Data va biznes jarayonlarini innovatsion boshqarish .....	1885
<b>To'g'onov Ibrohimxo'ja, Mardiyev Bunyod Sirojiddin o'g'li</b>	
Transport vositalari egalari fuqarolik javobgarligi sug'urtasini rivojlantirishning zamonaviy yo'nalishlari .....	1889
<b>Darxanova Umida</b>	
Tijorat banklarida moliyaviy injiniring konsepsiyasini mustahkamlashni takomillashtirish .....	1895
<b>Saipnazarov Sherbek Shaylavbekovich</b>	
O'zbekistonda aholi farovonligini ta'minlash yo'llari .....	1902
<b>Ibragimov Elmurod Gulboynor o'g'li</b>	
"Uzsuvta'minot" aj tizim tashkilotlarida biznes jarayonlari bo'yicha boshqaruv hisobini tashkil etish uchun hisob tizimining xususiyatlari.....	1906
<b>Saidakbarov Xusniddin Abdusalomovich</b>	
Ways to develop and stimulate innovative activity of the enterprise .....	1909
<b>U. Yusupov, Ye Junjiye</b>	
Трансформация мировой торговли: путь от протекционизма к свободному рынку на примере узбекистана.....	1914
<b>Олимова Насиба Акмаловна, Камилова Наргиза Абдукачоровна</b>	



Xalqaro tajribada mulkni qayta baholash metodlari: O'zbekiston uchun moslashtirish imkoniyatlari.....	1920
<b>Xadjayev Kamoliddin Fazliddinovich</b>	
O'zbekistonda professional futbol klublarini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish .....	1924
<b>Mirzayev Ulug'bek Abdusattarovich</b>	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklarining xizmat turlarining huquqiy asoslari.....	1931
<b>Umurzoqova Adiba Ochilovna</b>	
Qurilish materiallari sanoatida ishlab chiqarishni tashkil etish va innovatsion rivojlanish tendensiyalari.....	1937
<b>Haqberdiyev Ulug'bek Nasrullo o'g'li</b>	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida biznes ekotizimini takomillashtirishning nazariy asoslari.....	1944
<b>Shoymardonov Orziqul Jo'ra o'g'li</b>	
The impact of intensive urbanization in tashkent on economic stability, environmental conditions, and demographic processes.....	1949
<b>Khandamirdzhanova B.M., Shoislomova Komila Batyrovna</b>	
Barqaror rivojlanish va moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari .....	1956
<b>Maksudova Shaxzoda</b>	
Ish bilan bandlik darajasiga makroiqtisodiy omillar: aholi jon boshiga yaim, inflatsiya, oliy ta'lim bilan qoplanish darajasining ta'sirini baholash .....	1961
<b>Usmonov Ibrat Bobomurod o'g'li</b>	
Mintaqaviy iqtisodiyotlarda kapital qo'yimalarning determinantlari: qoraqalpog'istonda aholi va byudjet daromadlarini ekonometrik o'rganish.....	1966
<b>Sarsenbayev Baxitjan Abdulgaziyevich, Kengesbayeva Suliuxan Maxsetbay qizi, Kengesov Diyorbek Umidovich</b>	
Klasterlash asosida xizmat ko'rsatishni rivojlantirishning muhim xususiyatlari.....	1970
<b>Mirzayev Qulmamat Jonuzoqovich, Rabbimov Abror Mehriddin o'g'li</b>	
Bugungi kunda inson kapitalidan to'g'ri foydalanish .....	1975
<b>Dushaboyev Lazizjon Baxrom o'g'li</b>	
Urban aglomeratsiyalar sharoitida yer osti inshootlariga ta'sir etuvchi geologik xavflarni kompleks baholash.....	1983
<b>Irgashev Shavkatbek Turdiyevich</b>	
Hududlar kesimida ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik indikatorlarini ishlab chiqish va baholash usullari.....	1987
<b>Ibragimov Baxrom Baxodirovich</b>	
Роль кооперации и агрокластеров в повышении эффективности мясомолочного производства .....	1991
<b>Абдуллаев Жасурбек Абдижабборович</b>	
Markaziy osiyo davlatlarida qishloq xo'jaligi sektorining rivojlanishi va uning iqtisodiy ahamiyati .....	1996
<b>Voxidova Mehri Xasanovna, Xolxo'jayev Eldorxo'ja G'olibjon o'g'li</b>	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida elektron hujjat aylanishining samaradorligini rivojlantirish.....	2002
<b>Baxtiyorova Dildora</b>	
Moliyaviy institutlarning yashil kredit siyosati .....	2008
<b>Sotivoldiyev Asadulloh Axadjon o'g'li</b>	
Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini innovatsion boshqarish usullari .....	2012
<b>Ismatov Olimjon Aminjonovich</b>	
Xizmat ko'rsatish soxasini rivojlanishning muommolarini mahallabay ishlash tizimini takomillashtirish .....	2016
<b>Abdualimov Xabibullo Ne'matullayevich</b>	
Axborot ochiqligining korporativ boshqaruvdagi roli va investorlarni jalb qilishdagi ta'siri .....	2023
<b>Shukurova Xilolaxon Darvinxo'ja qizi, Shukurov Jakhongir Sa'dulla o'g'li</b>	
Экономические основы развития и повышения эффективности торговых услуг в узбекистане .....	2027
<b>Мусурмонова Мухлиса Самандар кизи</b>	
Ijtimoiy sohani rivojlantirishda davlat budjet xarajatlaridan samarali foydalanish yo'llari .....	2032
<b>Ajibayeva Raiiya Maxsutovna</b>	



Avtomobil chegara bojxona postlarida bojxona ma'murchiligini yanada takomillashtirish yo'llari .....	2036
<b>Raxmonova Nargiza Rashidovna</b>	
К вопросу о подготовке кадров для индустрии туризма и гостеприимства Республики Узбекистан .....	2042
<b>Хисамутдинова Альбина Фанисовна</b>	
Tijorat banklarida daromad va xarajatlarning tahlili va auditini takomillashtirish .....	2047
<b>Mirzayev Faxriddin Sobirjonovich</b>	
Yaponiya davlat xizmati tizimi: tuzilishi, ishga qabul qilish va kadrlar boshqaruvining mexanizmlari .....	2051
<b>Abdulkarimov O'tkir Xamzaevich</b>	
Infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish uchun investitsiyalar kiritish.....	2055
<b>Musoyev Behruz Shaxobjon o'g'li</b>	
Iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb etishning moliyaviy mexanizmlari.....	2060
<b>Skuybida Yevgeniy Vladimirovich</b>	
Mintaqaning investitsion imkoniyatlarini oshirishda xorij tajribasi.....	2065
<b>Masharipov Sardorbek Farxadovich</b>	
Qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) islohotlari va amaliyotdagi muammolar.....	2070
<b>Aipova Iroda Ikramovna</b>	
Yashil moliyalashtirish va uning yashil iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishdagi roli .....	2076
<b>Yuldashev Farhodbek Abdumutalibovich</b>	
Prudensial nazorat mohiyati, zarurligi va uni amaliy ahamiyati .....	2081
<b>Abdunazarova Dilshoda Akromovna</b>	
Banklararo to'lov tizimi mexanizmini rivojlantirish istiqbollari.....	2085
<b>Abduraximova Feruza Alisherovna</b>	
Banklarda aholi depozitlarini xavfsizligini ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish .....	2092
<b>Azizova Gulrux Xolmamat qizi</b>	
Electricity demand forecasting in case of Uzbekistan .....	2098
<b>Otabaev Yodgorbek Marim o'g'li</b>	
Kredit-modul muhitida talabalar mustaqil ishlarining tashkiliy tuzilmasi.....	2105
<b>Iskandar Allazov</b>	
Sanoat korxonalarida iqtisodiy samaradorlikni aniqlovchi ko'rsatkichlar tahlili hamda samaradorlikni ekonometrik modellashtirishning obyektiv zarurligi .....	2110
<b>Ruzmetov Davron Ibrogimovich, Saburov Javohir Kaxramon o'g'li</b>	
O'zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirishda hududiy resurslardan samarali foydalanish yo'llari .....	2123
<b>Raximova Dilfuza Mirzakasimovna</b>	
Цифровая трансформация производственных предприятий: опыт внедрения SAP S/4HANA в uzauto motors .....	2130
<b>Юсупов Равшанбек Аминбаевич, Хусайнов Фолиб Рашидович</b>	
Xorazm viloyati iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlashning ustuvor vazifalari.....	2137
<b>Yaxshimuratov Maqsadbek Narimon o'g'li</b>	
Elektr energiyasini ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va uning muqobil manbalaridan foydalanish imkoniyatlarini oshirish yo'llari .....	2141
<b>Urmanbekova Iroda Farxodovna</b>	
Jahon moliya tizimida kriptovalyutalarning roli: evolyutsiya va rivojlanish dinamikasi.....	2146
<b>Jo'rayev Yahyo Ikromjon o'g'li</b>	
Moliyaviy marketing va fond bozori: qanday qilib investorlar ishonchini yo'naltirish mumkin?.....	2150
<b>Mirmahmudova Nozima Xusniddinovna</b>	
Comparative literature, linguistics, and translation studies: convergences and contrasts.....	2154
<b>Bukhara State Technical University</b>	
Tijorat banklarida dividend siyosatining joriy holati.....	2159
<b>Sherkuziyeva Nasiba Abrorovna</b>	
Oilaviy tadbirkorlik doirasida gulchilikni rivojlantirish .....	2165
<b>Nurmatova Dilola Dilshod qizi</b>	



Factors for developing innovative infrastructure in Uzbekistan.....	2170
<b>Uzaydullaev Sherzod Shukurullaevich</b>	
“Yashil” polimer sirt-faol moddalar orqali mahalliy suv-neftli emulsiyalarni parchalash usuli.....	2176
<b>Hamroyev Obid Olimovich, Sattorov Mirvohid Olimovich</b>	
Raqamli transformatsiya va boshqaruvda avtomatlashtirish.....	2181
<b>Rasulova Nargiza Shavkatovna</b>	
Budjet tashkilotlarda asosiy vositalarning eskirishi va unga qo‘yiladigan chora tadbirlar.....	2184
<b>Shakarov Qulmat Ashirovich</b>	
O‘zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirishning istiqbolli yo‘llari.....	2189
<b>Javliyeva Gulasal Bahriddin qizi</b>	



# O'ZBEKISTONDA ZIYORAT TURIZMINI RIVOJLANTIRISHNING ISTIQBOLLI YO'LLARI

Javlijeva Gulasal Bahriiddin qizi

Toshkent Davlat Iqtisodiyot universiteti

Xalqaro Turizm fakulteti magistri

ORCID:0009-0003-3826-3148

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekistonda ziyorat turizmining bugungi holati, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi – ziyorat turizmi sohasini kompleks rivojlantirish yo'llarini aniqlashdan iborat. Ilmiy ishda statistik ma'lumotlar, rasmiy hujjatlar, xalqaro tajribalar va tahliliy usullardan foydalanilgan. Natijalarda infratuzilma yetishmovchiligi, xizmatlar sifati, marketing va investitsiya muammolari ochib berilgan. Yakunda, sohani barqaror rivojlantirish uchun infratuzilmani modernizatsiya qilish, xususiyl sektorini jalb etish hamda xalqaro hamkorlikni kengaytirish bo'yicha amaliy takliflar ilgari surilgan.

**Kalit so'zlar:** Ziyorat turizmi, diniy meros, infratuzilma, xalqaro tajriba, investitsiya, turizm siyosati, O'zbekiston.

**Abstract:** This article examines the current state of pilgrimage tourism in Uzbekistan, its challenges, and opportunities for development. The main objective of the study is to identify comprehensive approaches for the sustainable advancement of the sector. The research utilizes statistical data, official documents, international case studies, and analytical methods. The findings reveal issues related to infrastructure, service quality, marketing, and investment gaps. The paper concludes with practical recommendations, including modernization of infrastructure, attraction of private investments, and expansion of international cooperation to foster sectoral growth.

**Key words:** Pilgrimage tourism, religious heritage, infrastructure, international experience, investment, tourism policy, Uzbekistan.

**Аннотация:** В статье рассматривается текущее состояние паломнического туризма в Узбекистане, выявляются существующие проблемы и анализируются возможности для их решения. Цель исследования – определить комплексные пути устойчивого развития данной отрасли. В работе использованы статистические данные, официальные документы, международный опыт и аналитические методы. В результате выявлены недостатки в инфраструктуре, качестве услуг, маркетинговой политике и инвестиционной привлекательности. В заключение представлены практические предложения по модернизации инфраструктуры, привлечению частных инвестиций и расширению международного сотрудничества в сфере паломнического туризма.

**Ключевые слова:** Паломнический туризм, религиозное наследие, инфраструктура, международный опыт, инвестиции, туристическая политика, Узбекистан.

## KIRISH

So'nggi yillarda turizm sohasi O'zbekiston iqtisodiyotining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanib, mamlakatning xalqaro imijini mustahkamlash, infratuzilmani modernizatsiya qilish va aholi bandligini oshirishda muhim o'rin egallamoqda. Ayniqsa, ziyorat turizmi – diniy va ma'naviy qadriyatlar asosida shakllangan turizm turi sifatida – jahon tajribasida tobora muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. O'zbekiston hududida joylashgan muqaddas qadamjolar, avliyolar maqbaralari, tarixiy obidalar va diniy meros obyektlari bu yo'nalishni rivojlantirish uchun keng salohiyatga ega.

Prezident Sh.M. Mirziyoyevning ta'kidlashicha, "O'zbekiston qadimiy va muqaddas diyor sifatida, ziyorat turizmini rivojlantirish bo'yicha ulkan salohiyatga ega"<sup>1</sup>. Mamlakatda so'nggi yillarda ziyorat turizmini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan kompleks dasturlar va infratuzilmaviy loyihalar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

Jahon miqyosida har yili 200 milliondan ortiq sayyoh ziyorat maqsadida turli diniy maskanlarga tashrif buyurmoqda. Xususan, yiliga taxminan 150 million nasroniylar, 50 million musulmonlar, 40 million buddistlar, 30 million hinduistlar va boshqa din vakillari muqaddas joylarga safar qiladi<sup>2</sup>.

1 Mirziyoyev, Sh.M. (2020). Yangi O'zbekiston – taraqqiyot va bunyodkorlik yo'lida. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti matbuot xizmati.

2 UNWTO World Tourism Barometer, 2023 Edition



O'zbekiston ham Saudiya Arabistoni, Eron, Hindiston kabi mamlakatlar qatori ziyorat turizmi sohasida ulkan salohiyatga ega davlatlardan biri sanaladi. Ayniqsa, Imom al-Buxoriy majmuasining xalqaro darajadagi ziyoratgoh sifatida rivojlanishi musulmon olami uchun muhim voqelik bo'lib, Makka va Madinadan keyin eng muqaddas sajdagohlar sirasiga kiradi.

Mamlakatda Bahovuddin Naqshband, Imom al-Buxoriy, Shayx Zayniddin, Maxdumi A'zam, Hakim at-Termiziy, Imom al-Moturidiy, Zangiota, Shayx Hovand Tohur kabi mashhur allomalar va avliyolar maqbaralari joylashgan bo'lib, ularning aksariyati xalqaro sayyohlarni o'ziga jalb qiluvchi muqaddas maskanlarga aylantirilgan. Ularning yodgorlik majmualari restavratsiya qilinib, ziyoratchilar uchun zamonaviy sharoitlar yaratilmoqda.

Bugungi kunda O'zbekiston 4 mingdan ortiq tarixiy va madaniy obidalarga ega bo'lib, sayyohlik salohiyati jihatidan dunyoning eng boy o'nta mamlakati qatoriga kiradi. Samarqand, Buxoro, Xiva va Shahrisabz shaharlarining YUNESKOning Jahon merosi ro'yxatiga kiritilishi, bu yo'nalishda yurtimizning global turizm xaritasidagi o'rnini yana-da mustahkamlamoqda.

Shuningdek, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik, ijtimoiy totuvlik, tinchlik muhiti va xalqimizga xos mehmondo'stlik omillari xorijiy turistlarni tobora keng jalb qilmoqda. Mutaxassislar fikricha, turizm sohasining ichki imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishda aynan ziyorat turizmi muhim strategik yo'nalish sanaladi. Zero, har qanday yangi turistik mahsulot avvalo mahalliy ehtiyojdan kelib chiqib shakllanar ekan, u orqali xalqaro bozorda ham barqaror raqobatga erishish mumkin.

### MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Karimova D. (2022) fikricha, ziyorat turizmi barqaror rivojlanish nuqtai nazaridan katta ahamiyatga ega. Muallif ziyorat turizmining ekologik va madaniy ta'sirlarini tahlil qilgan holda, ushbu turizm turi atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatmasligini ta'kidlaydi. Shuningdek, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ekologik muammolarni qanday yo'llar bilan bartaraf etish mumkinligi yuzasidan takliflar bildirgan. Bundan tashqari, ziyorat maskanlarining madaniy merosni asrab-avaylashdagi o'rniga alohida e'tibor qaratilgan. Ushbu manba ziyorat turizmining barqaror rivojlanish bilan bog'liq jihatlarni o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Jalilov K. (2020) Buxoro shahridagi ziyorat maskanlari va ularning turizm industriyasiga qo'shgan hissasi haqida fikr bildiradi. Muallifning ta'kidlashicha, Buxoro shahrida joylashgan tarixiy obidalar va muqaddas qadamjolar butun musulmon olamida yuqori ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqot ziyorat turizmining hududiy rivojlanishga qanday ta'sir ko'rsatishini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Mammadov R. (2020) o'z tadqiqotida ziyorat turizmining iqtisodiy va madaniy ta'sirlarini tahlil qiladi. Muallifning fikricha, ziyorat turizmi madaniy resurslar bilan bevosita bog'liq bo'lib, mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ushbu manba ziyorat turizmining iqtisodiy va madaniy jihatlarni chuqur o'rganishda foydalidir.

### TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur ilmiy maqolani tayyorlash jarayonida ziyorat turizmini o'rganishga oid zamonaviy ilmiy yondashuvlar, statistik tahlil usullari hamda taqqoslama tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi – O'zbekistonda ziyorat turizmining hozirgi holatini tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash va uni rivojlantirishning istiqbolli yo'llarini asoslab berishdan iborat.

Tadqiqot davomida quyidagi metodlar qo'llanildi:

Taqqoslama tahlil – O'zbekiston va boshqa musulmon davlatlaridagi ziyorat turizmi tajribalari o'rganilib, milliy modelning ustun va zaif jihatlari aniqlandi.

Kontent-tahlil – ziyorat turizmi rivojiga oid hujjatlar, davlat dasturlari, Prezident qarorlari, ilmiy maqolalar va xalqaro tashkilotlar tavsiyalari mazmunan tahlil qilindi.

Tadqiqotda O'zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi, Statistika agentligi, Jahon Turizm Tashkiloti (UNWTO), shuningdek, ilmiy adabiyotlar va mahalliy ommaviy axborot vositalari ma'lumotlaridan asosiy manba sifatida foydalanildi.

### TAHLIL VA NATIJALAR

Ziyorat turizmi O'zbekistonda turizmning eng istiqbolli yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda olib borilayotgan davlat siyosati tufayli bu yo'nalishda sayyohlar oqimi sezilarli darajada oshgan. Bu yo'nalish nafaqat iqtisodiy foyda, balki ma'naviy va madaniy taraqqiyot omili sifatida ham alohida e'tiborga loyiqdir. Mamlakatimiz hududida mavjud diniy obidalar, muqaddas qadamjolar va tarixiy meros ob'ektlari ziyoratchilar oqimini oshirmoqda. Ayniqsa, islom sivilizatsiyasi rivojiga beqiyos hissa qo'shgan olimlar va avliyolar maskanlari xorijlik sayyohlar orasida katta qiziqish uyg'otmoqda.




Ma'lum qilinishicha, O'zbekistonga 2024-yilda jami 8,2 mln nafar chet el fuqarolari turistik maqsadlarda tashrif buyurgan:

ayollar – 4 077,1 ming nafar (49,8 foiz)

erkaklar – 4 104,3 ming nafar (50,2 foiz)

2024-yilning boshidan turistlar oqimi har oy salmoqli oshib borgan. Yevropa Ittifoqi davlatlaridan 2024-yilning yanvar oyida 4 601 nafar fuqaro turistik maqsadda O'zbekistonga tashrif buyurgan.<sup>3</sup>



1-rasm. 2024-yilda O'zbekistonga tashrif buyurga turistlar (foizda, jinsi bo'yicha).

O'zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligining rasmiy statistik ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda mamlakatga 6,6 milliondan ortiq xorijiy sayyoh tashrif buyurgan bo'lsa, ularning qariyb 20 foizi ziyorat maqsadida kelgan<sup>4</sup>. Bu esa ziyorat turizmi iqtisodiy salohiyatining yuqoriligini ko'rsatadi. Ayniqsa, Buxoro va Samarqand shaharlarida xizmat ko'rsatish, transport, mehmonxona va boshqa xizmat sohalari daromadlar oshgan.

Shuningdek, hukumat tomonidan diniy obidalarini restavratsiya qilish, ziyoratchilar uchun zarur infratuzilmani yaratish, xalqaro yo'nalishlar bo'yicha reyslar sonini ko'paytirish kabi chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Masalan, 2017-yilda Prezident qaroriga binoan tashkil etilgan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Islom madaniyati markazi bu yo'nalishda ilmiy-ma'rifiy asosda faoliyat yuritmoqda. Markazning asosiy vazifasi – islom olimlari merosini o'rganish, saqlash va xalqaro maydonda targ'ib qilishdir<sup>5</sup>. Bu markaz ziyorat turizmini ilm-fan, ma'naviyat va tarix bilan uyg'un holda rivojlantirish imkonini bermoqda.

Mamlakatimizda ziyorat turizmini rivojlantirish bo'yicha so'nggi yillarda bir qator dasturlar va loyihalar amalga oshirilmoqda.

“Ziyorat turizmini rivojlantirish dasturi” (2021–2025-yillar). Bu dastur islom hamda boshqa dinlarga oid muqaddas joylarni restavratsiya qilish, ziyoratchilar uchun infratuzilmani yaxshilash va xizmatlar sifatini oshirishni ko'zda tutadi.

Asosiy yo'nalishlar quyidagilar:

Ziyorat yo'nalishlari bo'yicha yo'l xaritalarini ko'rsatish;

Mehmonxonalar, transport va gid xizmatlarini ko'rsatish;

Mahalliy va xorijiy ziyoratchilar uchun qulay vizali rejimlarni tadbiq etish.

Dastur doirasida amalga oshirilayotgan ishlar:

70 dan ortiq tarixiy-diniy obidalar restavratsiya qilinmoqda (jumladan, Buxorodagi Bahouddin Naqshband majmuasi, Samarqanddagi Imom Buxoriy majmuasi);

<sup>3</sup> <https://daryo.uz/2025/02/03/ozbekistonga-2024-yili-qancha-turist-kelgani-ochiqlandi>

<sup>4</sup> [www.motav.uz](http://www.motav.uz) – O'zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi, 2023-yilgi statistik axboroti.

<sup>5</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 23-iyundagi PQ-3080-son qarori. <https://lex.uz/docs/329665>



40 dan ortiq yangi ziyorat yo'nalishlari ishlab chiqilgan;

“Ziyorat turizmi haftaligi” kabi yirik xalqaro loyihalar yo'lga qo'yilgan;

“Halol turizm” mezonlari asosida mehmonxona va ovqatlanish obyektlariga sertifikatlar berilmoqda<sup>6</sup>.

Ushbu dastur O'zbekistonning musulmon davlatlari bilan turizm aloqalarini mustahkamlash, madaniy diplomatiyani rivojlantirish va islomiy meros asosida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga hissa qo'shadi.

e-Ziyorat.uz loyihasi. Bu elektron platforma orqali ziyorat joylari haqida ma'lumotlar, marshrutlar, onlayn bron qilish va xizmatlarga oid ma'lumotlar taqdim etiladi. E-Ziyorat.uz – bu O'zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirishga qaratilgan elektron platformadir. O'zbekistondagi 100 ga yaqin ziyoratgoh va qadamjolar haqida batafsil ma'lumotlar mavjud.

Ko'p tilda qo'llab-quvvatlash: sayt 7 ta tilga tarjima qilingan, jumladan, o'zbek, rus, turk, fors, arab va boshqa tillar kiritilgan. Interaktiv xarita mavjud bo'lib, unga ziyoratgohlar joylashuvi, manzillari va ular bilan bog'liq ma'lumotlarni ko'rish imkoniyati mavjud.

E-Ziyorat.uz platformasining asosiy maqsadi O'zbekistonning ziyorat turizmini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, ushbu platforma bir nechta muhim yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

Shu bilan birga, tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, ayrim muammolar ham mavjud:

Texnik muammolar: serverlar sekin ishlashi yoki nosozliklar; mobil moslashuvchanlik past bo'lishi (mobil versiya qulay emas); internet aloqasi talab qilinadi – har doim ham foydalanuvchilarda barqaror internet bo'lmasligi mumkin.

Foydalanuvchi interfeysining murakkabligi: keksalar yoki texnologiyani bilmaydiganlar uchun tushunarsiz bo'lishi; menyular chalkash yoki noto'g'ri joylashtirilgan bo'lishi mumkin.

Ma'lumotlarning yangilanmasligi: ziyorat qilinadigan joylar haqida noto'g'ri yoki eskirgan ma'lumotlar; raqamli xaritalar, vaqt jadvali yoki xizmatlar bo'yicha xatoliklar.

Interaktivlik va haqiqat hissining pastligi: virtual ziyorat haqiqiy muhitni to'liq bera olmaydi; ruhiy-emosional tajriba cheklangan bo'lishi mumkin.

Xavfsizlik va maxfiylik: foydalanuvchi ma'lumotlari yetarli darajada himoyalangan bo'lishi mumkin; ro'yxatdan o'tishda shaxsiy ma'lumotlarning talabi (potensial xavf).

To'lov tizimidagi nosozliklar: ziyorat xizmatlariga to'lov qilishda xatoliklar yoki noto'g'ri ishlov berish.

Mahalliyashtirish muammolari: o'zbek tilida noto'g'ri tarjimalar yoki texnik atamalarning tushunarsizligi.

“Umra Plus” loyihasi. Saudiya Arabistoni bilan hamkorlikda amalga oshirilgan loyiha bo'lib, O'zbekiston fuqarolari haj va umra ziyoratlari davomida O'zbekistonning muqaddas joylari haqida ham ma'lumotga ega bo'lishadi. Ayni paytda, Saudiya fuqarolari uchun Buxoro, Samarqand, Termizga yo'naltirilgan ziyorat turlari ishlab chiqilgan.

Dastur doirasida amalga oshirilgan ishlar:

O'zbekistonning ziyorat turizmi salohiyatini ko'rsatish maqsadida Malayziyada “Umra Plus O'zbekiston” dasturining taqdimoti o'tkazildi. Taqdimotda 100 dan ortiq turistik kompaniya qatnashdi. Taqdimot doirasida marketing materiallari (videorolik, broshyura, saytlarda reklama) ishlab chiqildi va tarqatildi.

Umra Plus dasturining afzalliklari:

Qisqa vaqt ichida ko'p ziyoratgohlarga tashrif buyurish: dastur ziyoratchilarga O'zbekistonning eng mashhur va tarixiy joylarini ko'rish imkonini beradi.

Madaniy boyliklar bilan tanishish: masalan, O'zbekistonning boy madaniyati, urf-odatlar va an'analari bilan ziyoratchilarni yaqindan tanishtirish.

Umra ibodatidan so'ng vatanimizga tashrif buyurish: musulmonlar uchun zarurligi, ziyoratgohlarimizning muhimlik darajasini ko'rsatishimiz lozim. O'zbekistondagi muqaddas joylarni ziyorat qilish orqali ziyoratchilar ruhiy boylikka ega bo'ladilar.

“Umra Plus” dasturi doirasida amalga oshirilayotgan ishlarning asosiy maqsadi – ziyoratchilar uchun qulay sharoit yaratish va O'zbekistonning ziyorat turizmini jahon miqyosida tanitishdan iborat.

Shu bilan birga, tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, ayrim muammolar ham mavjud:

Ziyoratgohlar infratuzilmasining ayrim hududlarda sust rivojlanishi.

Ba'zi muqaddas joylarda yo'l, transport va sanitariya sharoitlari yetarli emas, ayniqsa chekka viloyatlarda.

Tashrif buyuruvchilar soni oshgan sari, mavjud infratuzilma yuklamaga bardosh bermay qolmoqda.

Mahalliy mutaxassislar va gidlar yetishmasligi. Dastur bo'yicha xizmat ko'rsatish uchun islom tarixi va xorijiy tillarni yaxshi biladigan professional gidlar soni kam. Ba'zida xorijiy ziyoratchilar bilan samarali aloqa o'rnatish qiyinlashadi.

Marketing va xalqaro reklama yetarli darajada emas. “Umra Plus” brendi hali keng xalqaro auditoriyaga tanish emas, asosan faqat musulmon davlatlarda targ'ib qilinmoqda. Raqobatbardosh marketing strategiyalari (masalan, Dubay yoki Turkiyadagi kabi) hali to'liq shakllanmagan.

6 O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi va Turizm qo'mitasi. “Ziyorat turizmi tahliliy hisobot”, 2023-yil



Aviatsiya va logistik cheklovlar. To'g'ridan-to'g'ri reyslar soni kam, ziyoratchilar ayrim hollarda tranzit orqali O'zbekistonga yetib kelishga majbur bo'ladi. Transport xizmatlari ba'zida qimmat yoki tartibsiz jadvalda amalga oshirilmoqda.

Raqobatchi davlatlar bilan solishtirganda tajriba va salohiyat pastroq. Turkiya, Misr, Eron kabi davlatlar allaqachon ziyorat turizmida kuchli brend va tajribaga ega. O'zbekiston bu borada hali yangilik bo'lgani sababli ishonch va doimiy oqim shakllanib ulguradi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonning ziyorat turizmini rivojlantirish istiqbollari keng imkoniyatlarga ega. Mamlakatda mavjud diniy va tarixiy obidalar, ayniqsa islomiy meros, ziyorat turizmining muhim tarkibiy qismi bo'lib, ularni saqlash va rivojlantirish orqali turizm sohasining raqobatbardoshligini oshirish mumkin. Ziyorat turizmini rivojlantirish uchun infratuzilmani yaxshilash, xalqaro hamkorlikni kengaytirish, marketing va reklama faoliyatini kuchaytirish, shuningdek, turizm sohasida malakali kadrlarni tayyorlash zarur.

Rivojlanishning asosiy yo'nalishlari sifatida ziyorat joylariga oson kirish imkoniyatlarini yaratish, xalqaro hamkorlikni kuchaytirish, marketing faoliyatini rivojlantirish hamda ziyorat turizmi bo'yicha mutaxassislar tayyorlash lozim. Davlat tomonidan soliq imtiyozlari va moliyaviy yordam ko'rsatish, shuningdek, turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilish ziyorat turizmining tezkor rivojlanishiga xizmat qiladi.

Ziyorat turizmini rivojlantirish uchun tizimli yondashuv va ko'p tomonlama hamkorlik muhim ahamiyatga ega. Bu yo'nalishda amalga oshirilgan har bir chora O'zbekistonning global turizm bozorida o'rnini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Ziyorat turizmi O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga katta hissa qo'shishi mumkin, chunki u yangi ish o'rinlari yaratish, hududiy iqtisodiyotni rag'batlantirish va ma'naviy-ma'rifiy saviyani oshirishga yordam beradi. Hukumatning qo'llab-quvvatlashi, moliyaviy yordam ko'rsatish va turizmga ixtisoslashgan zonalarini shakllantirish orqali ziyorat turizmining salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish mumkin. Umuman olganda, ziyorat turizmi O'zbekistonning madaniy va diniy merosini saqlash hamda uni xalqaro miqyosda tanitish uchun muhim strategik yo'nalish hisoblanadi.

Ziyorat turizmi sohasida joriy etilgan zamonaviy loyihalar – E-Ziyorat platformasi, Ziyorat turizmi haftaligi va Umra Plus kabi tashabbuslar mamlakatimizda diniy turizmni raqamlashtirish, tashkiliy salohiyatni kuchaytirish hamda xizmatlar sifatini oshirish yo'lida muhim qadamlardir. Ushbu loyihalar orqali ziyoratchilar uchun qulayliklar yaratilmoqda, ularning ma'naviy ehtiyojlari zamonaviy texnologiyalar orqali ta'minlanmoqda.

Shunga qaramay, bu loyihalarni amalga oshirish jarayonida texnik, tashkiliy va madaniy muvozanat masalalarida ayrim kamchiliklar kuzatilmoqda. Jumladan, infratuzilmaning yetarlicha rivojlanmagani, foydalanuvchilar uchun interfeys qulayligining pastligi yoki axborotning to'liq bo'lmasligi samaradorlikka salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Kelgusida bu muammolarni tizimli hal etish, xalqaro tajribadan foydalanish va mahalliy ehtiyojlarni chuqur tahlil qilish orqali ziyorat turizmi yo'nalishidagi loyihalar yanada mukammal va raqobatbardosh bo'lishi mumkin. Shu yo'sinda, diniy turizm faqatgina ibodat emas, balki madaniy, iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyot vositasiga aylanishi mumkin.

2021–2025-yillarga mo'ljallangan “Ziyorat turizmini rivojlantirish dasturi” O'zbekistonning diniy-madaniy merosini xalqaro miqyosda targ'ib etish, iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish va mahalliy turizm infratuzilmasini yaxshilashga qaratilgan muhim strategik hujjat hisoblanadi. Dastur doirasida Buxoro, Samarqand, Toshkent va boshqa tarixiy shaharlarda bir qator obidalar restavratsiya qilindi, yangi ziyorat yo'nalishlari ishlab chiqildi, “Umra Plus”, “Ziyorat turizmi haftaligi”, “Halol turizm” kabi loyihalar orqali xalqaro hamkorlik mustahkamlandi.

Shu bilan birga, dastur ijrosida ayrim muammolar ham saqlanib qolmoqda. Xususan, hududiy tengsizlik, kadrlar salohiyatining pastligi, raqamli xizmatlarning rivojlanmagani va xavfsizlik bilan bog'liq tahdidlar mavjud. Biroq to'g'ri yo'naltirilgan siyosat, xalqaro hamkorlikning kuchaytirilishi va mahalliy infratuzilmaning izchil rivojlanishi orqali bu kamchiliklarni bartaraf etish mumkin.

Mazkur dastur ziyorat turizmi orqali iqtisodiy o'sish, madaniy merosni saqlash va O'zbekistonning global turizm xaritasidagi o'rnini mustahkamlash yo'lida muhim bosqich bo'lib xizmat qilmoqda.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 23-iyundagi PQ-3080-son qarori. <https://lex.uz/docs/329665>
2. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi va Turizm qo'mitasi. “Ziyorat turizmi tahliliy hisobot”, 2023-yil.
3. Mirziyoyev, Sh. M. (2020). Yangi O'zbekiston – taraqqiyot va bunyodkorlik yo'lida. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti matbuot xizmati.
4. O'zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros agentligi rasmiy portali: [www.tourism.uz](http://www.tourism.uz)
5. Karimova, D. (2022). Ekoturizm va barqaror rivojlanish. Ekoturizm jurnali, 4(1), 55–60.
6. Jalilov. Buxoro – ziyorat maskanlari shahri. TDIU nashriyoti, 2020.



7. Kovács, L. (2021). Ziyorat turizmi va uning turistik salohiyati: yangi istiqbollar. Global Turizm Tadqiqotlari Jurnal, 8(3), 112–120.
8. Mammadov, R. (2020). Ziyorat turizmining iqtisodiy va madaniy ta'siri: o'rganish va tahlil. Ziyorat Turizmi va Madaniyat Jurnal, 5(2), 45–58.
9. Timothy, D. J., & Olsen, D. H. (2006). *Tourism, Religion and Spiritual Journeys*. Routledge.
10. UNESCO World Heritage List – Samarkand & Bukhara. [www.unesco.org](http://www.unesco.org)
11. Uzbekistan Travel: <https://uzbekistan.travel>
12. UNWTO World Tourism Barometer, 2023 Edition.
13. [www.motav.uz](http://www.motav.uz) – O'zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi, 2023-yilgi statistik axboroti.
14. <https://daryo.uz/2025/02/03/ozbekistonga-2024-yili-qancha-turist-kelgani-ochiqlandi>



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

### 2025. № 4

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

---